BUXORO OBLASTIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR YETISHTIRISH

(1965-1985-YILLAR MISOLIDA)

Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich

"Zarmed" universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

1965-yil mart oyida "Qishloq xo'jaligini industrial negizga ko'chirish – tub vazifalarimizdan biridir" tamoyili asosida o'tkazilgan KPSS Plenumida O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini mustahkam iqtisodiy negizga ko'chirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Ushbu vazifaning bajarilishi o'z navbatida qishloq xo'jaligining bevosita rivojlantirish bilan uzviy bog'liq edi. 1965-1985 yillardagi Buxoro oblastida qishloq xo'jaligi mahsulotlar yetishtirish masalasi nafaqat O'zbekiston SSR, balki ittifoq respublikalari xalq xo'jaligi uchun ham muhim ahamiyatga ega edi. Shu boisdan ham mazkur maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlar yetishtirish siyosati va uning qo'llanilishi ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, qishloq xo'jaligi, KPSS Plenumi, syezd, mexanizatsiyalash, agrosanoat, ittifoq respublikalari, agrosiyosat.

1965 yildan 1979 yilgacha mexanizatsiyalash kartoshkani yig'ib terib olishda 1,7 hissa, sigirlarni sog'ishda 3,3 barobar, qoramol fermalari va komplekslarida yem-xashak tarqatishda 14 barobar, cho'chqa boqishda 5,8 barobar, parranda boqishda 5,5 barobar, binolarni go'ngdan tozalashda esa tegishli tartibda 8,7 va 12 barobar oshdi. Lekin shuni ham aytish kerakki, sabzavot ekish hozirgacha 64 foiz, paxta terish – 53, kartoshka - 60, qoramol fermalari va komplekslarida yem-xashak tarqatish – 42, chorvachilik binolarini go'ngdan tozalash – 72 foizga mexanizatsiyalashtirilgan.

Buxoro viloyatida 1960-1970 yillarda qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish va agrosanoat integratsiya jarayonlarini faol rivojlantirish, yaxlit agrosanoat kompleksining ajralmas bo'g'iniga aylantirish tashabbuslari kuchaytirildi. Bu davrda KPSSning "kuch – g'ayrati ilmiy, kompleks yondashishni kuchaytirishga, qishloq xo'jaligiga kapital mablag'lar sarfini ancha oshirishga hamda ulardan ko'proq samara olishga, uning mahsuldorlini o'stirishga, ekonomikaning mana shu tarmog'ida xo'jalik yuritish mexanizmlarini hamda uning agrosanoat kompleksi barcha bo'g'inlari bilan aloqalarini takomillashtirishga qaratilgandir". Agrar siyosatining ilgarigi bosqichlarida ushbu jarayon nazariy-mafkuraviy ta'sirlarga to'la tortilmagan edi.

L.I.Brejnev partiyaning KPSS XXVI syezdidagi nutqiga e'tibor qaratsak ittifoqning agrar va qishloq xo'jaligiga oid siyosatini ochiqlashimiz mumkin. "Biz bu dasturni ishlab chiqarishga kirishdik, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash dasturini qat'iy ravishda hal qilib berishimiz lozim! Bu dastur qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning ancha ko'paytirilishini ta'minlashi kerak. Bu dastur qishloq xo'jaligi bilan uning mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi tarmoqlarini, albatta, savdoni ham bir-biriga mahkamroq bog'lashi lozim". Boshqacha qilib aytganda, dasturning o'z oldiga qo'ygan maqsadi aholini oziq-ovqat bilan uzluksiz ta'minlash vazifasini mumkin qadar qisqa muddatlarda hal etishdan iborat "yaxlit bir butun sifatida butun agrosanoat kompleksni planlashtirish, mablag' bian ta'minlash va boshqarish yuksak pirovard maqsad xalq xo'jalik natijalariga erishishga, mamlakatni puxta ravishda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xomashyosi bilan ta'minlashga yordam beradi" degan ma'no anglashiladi.

KPSS Markaziy Komitetining 1965 yildagi mart Plenumi 1965-1985 yillardagi agrar siyosatga asos soldi, u o'shandan keyingi Plenumlarning, XXIII, XXIV, XXV va XXVI syezdlarining materiallarida, Sovet ittifoqi Kommunistik partiya hujjatlarida qayd etildi va mustahkamlandi. Partiya dasturida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish taraqqiyotini tezlashtirish, qishloqning butun qiyofasini moddiy asosda o'zgartirish iqtisodiy siyosatning eng muhim muammosi sifatida

belgilandi. Ushbu jarayonni L.I.Brejnevning “hozirgi paytda ekonomikamizning agrar sektorni eng zamonaviy darajaga ko’tarishdan ham muhimroq vazifasi yo’q. Qishloq xo’jaligining bundan buyon ham yuksalib borishi – mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy har tomonlama taraqqiy etishining ajralmas qismidir” degan fikri bilan ham asoslash mumkin”ligini qayd etgan.

1970 xalq xo’jaligi yil yakunida zavod kollektivi davlatga qorako’l teri yetishtirish sotish planini 110,7 % bajarib, plandagi 17 ming o’rniga 18 ming 830 dona sifatli qorako’l teri topshirilgan. Jun sotish plani 152,9% go’sht sotish 101,1 % bajarildi. Har yuz sovluqdan 152,7 ta qo’zi olindi. Qorako’l teri tan narxi har s dan 25 so’m 50 tiyin arzonlashgan. Zavodda 1967 yildan to’la xo’jalik hsobiga o’tilganligi, eng muhim mehnatga kommunistik munosabatda bo’lish va ongli intizom, yuksak uyushqoqlikning ajoyib samarasidir.

Shu bilan birga qishloq xo’jaligida ishlab chiqarishining samaradorligi ko’pgina komplekslarning boshqa barcha bo’g’inlarini ham proporsional, balanslashtirilgan tarzda rivojlantirishga bog’liq. Shu boisdan SSSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1981-1985 yillarga hamda 1990 yilgacha bo’lgan davrga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlarida qishloqqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olingan mahsulotlarni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag’larni ko’proq sarflash ko’zda tutilgan edi. Biroq, qishloq xo’jaligi mashinalarini, o’g’itlarni chiqarishni ko’paytirish va sifatini yashilash, transport, mahsulot saqlash butun sohani takomillashtirish tadbirlari yetarlicha amalga oshirilmagan, uni qayta ishlashning ishlab chiqarish ba’zasi mustahkamlanmagan, oziq-ovqat, go’sht va sut sanoati zamonaviy mashina-uskunalar bilan ta’minlanishiga yetarli e’tibor qaratmaganligi sababli rejalar to’la amalga oshirilmagan.

Partiya va davlat hozirgi agrar siyosat vazifalarini hal qilar ekanlar, agrosanoat kompleksining asosiy, markaziy bo’g’ini – qishloq xo’jaligi ekanligiga, uning undan buyon ham rivojlanib borishining asosiy poydevori kapital mablag’larni ko’paytirib borish ekanligiga tayanadi. 1965-1980 yillar ichida ekonomikaning ana shu

tarmog'ini rivojlantirishga ishlarning butun kompleksi bo'yicha Sovet hokimiyatining undan oldingi barcha yillar mobaynidagiga qaraganada 4,1 barobar ko'proq mablag': 395,4 milliard so'm, ya'ni kapital mablag'lar umumiy summasining 80,5 proyenti sarflani. Biz bundan buyon ham qishloqqa katta miqdorda moliyaviy va moddiy resusrlar ajrataveramiz, bu tarmoqni industrial negizga o'tkazishga davom ettiraveramiz. Biroq, endilikda asosiy diqqat e'tibor kapital mablag'lardan olinadigan samaraga, qishloq xo'jaligi mahsuldorligini o'stirishga, uning agrosanoat kompleksi hamma tarmoqlari bilan a'loqasini chuqurlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan. Bu 80-yillardagi agrar siyosatining muhim xususiyatlaridir.

Xalq xo'jaligi dasturida qishloq xo'jaligi samaradorligi ko'pgina jihatlardan qishloq xo'jaliginigina emas, balki agrosanoat kompleksining boshqa barcha bo'g'inlarni ham proportsional, balanslashtirilgan tarzda rivojlantirishning 1981-1985 yillarga hamda 1990 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlaridan qishloqda ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olinadigan mahsulotni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag'lar ko'proq sarflanishi ko'zda tutilgan edi.

KPSS Markaziy Komitetining "Mexanizatsiyalashgan kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasi negizida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va kontsentratsiyalashni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 1976 yil 28 mayda qabul qilingan qarorida keng kooperatsiyalash negizida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kontsentratsiyalash, uni zamonaviy industriya negiziga ko'chirish – sotsialistik qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishning bosh yo'li, rivojlangan sotsializm sharoitida lenincha kooperativ plan g'oyalarini amalda ro'yobga chiqarishda yangi bosqich ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birga sanoatda mehnatni tashkil etishning brigada shakli takomillashtirilmagan, mehnatda ishtirok koeffisienti bo'yicha taqsimotning rag'batlantiruvchi samarasi sohada kam qo'llanilgan. Ko'pgina korxonalarda bunday brigadalar nomigagina mavjud, ular davlat rejalari asosida faoliyat

yuritmagan. Mehnatni normallashga doir ishlar yetarli darajada olib borilmagan. Go'sht kombinatida va vino zavodida ishchilarning 60 foizini ish normalari bajarilmagan. Buning oqibatida faqat paxta tozalash tarmog'idagina 2,5 mln so'mlik mahsulot yetkazib berilmagan, mehnat unumdorligi 0,8 foizga pasaygan. Ko'pgina korxonalarda, moddiy resurslar tejalayotgan holda, moddiy rahbatlantirish fondi ko'paymagan bu esa ishlovchilarga mukofot puli vaqtida to'lanmasligiga sabab bo'lgan. Bu esa xodimlarning iqtisod va tejamkorlikka intilishini susaytirgan va ular noroziligiga sabab bo'lgan.

Zavodda 1967 yildan to'la xo'jalik hisobiga o'tilgan. Buxoro yog'-ekstraksiya va sutchilik zavodlarida texnikaviy jihatdan asoslanmagan normalarni qo'llash tufayli ularning o'rtacha bajarilishi 150 foizdan ko'proqni tashkil etadi.

"Uzplodoovoshvinprom" agrar-sanoat birlashmasining mahsulot ishlab chiqarishini ixtisosolashtirish va kontsentratsiyalash bo'yicha qisqa muddatda to'plangan ish tajribasi diqqatga sazovordir. Birlashma xo'jaliklarida yetishtirilgan yalpi mahsulot 1975 yili 172 million so'mni tashkil etdi, bu esa oldingi yilga nisbatan 24 million so'm demakdir. 1975 yil ob-havoning noqulay kelishiga qaramasdan birlashma sovxozlari davlatga sabzavot topshirish planini 106, kartoshka topshirish planini 104 % va poliz mahsulotlari topshirish planini 105 % bajargan. "Uzplodoovoshvinprom"ning sabzavotchilik-uzumchilik sovxozi har gektaridan 227 sentner sabzavot yetishtirgan. Toshkent sovxozida B.Prudnikov boshliq zvenosi 27 gektar maydonning har gektaridan 251 sentinerdan xilma-xil sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan. "So'x" sovxozining Qambarov boshliq brigadasi esa 61 gektar yerning har gektaridan olingan kartoshka 223 sentinerni tashkil etgan edi.

1972 yil oxirida SSSR va O'zSSRdagi kolxozlararo korxona, birlashma va tashkilotlar soni tahlil qiladigan bo'lsak:

Ko'rsatgichlar	SSSR	O'zSSR
Kolxozlararo korxonalar, birlashma, tashkilotlar	4554	196

Qurilish	2432	59
Qurilish materilalari ishalb chiqardiigan	146	4
Chorva uchun ozuqa ishlab chiqarish	77	-
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish	14	-
Chorva uchun yem-xashak yig'ish punktlari	272	73
Parrandachilik fabrika va fermalari	574	11

Agro-sanoat birlashmasi yuzaga kelishi hamda rivojlanishi maqsadga muvofiq iqtisodiy muhit sharoitidagina muvafaqqiyatli amalga oshishi mumkin. Ushbu muhim xalq xo'jaligi muammosi ahamiyati to'g'risida L.I.Brejnev Umumittifoq kolxozchilarining III syezdida so'zlangan nutqida: "Agrar-sanoat birlashmalari so'zsiz yorqin kelajakka ega. Bu nafaqat yangi tashkil etish shakli balki muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisa. Biz bu borada amalda kuzatilayotgan tajribalarga diqqat bilan e'tibor qaratishimiz lozim, o'zimizni xatolardan ogohlantirishimiz, yetarli o'ylanmagan, shoshilinch qarorlarni bartaraf etishimiz kerak"ligi ta'kidlangan.

Ushbu davrdagi qishloq xo'jaligi korxonalarini kooperatsiyalashni tahliliy o'rgansak, agrar sanoatning navbatdagi, O'zbekiston SSR sharoitidagi birlashmalariga e'tibor qaratamiz:

1.Xomashyo ishlab chiqarish va uni ilg'or qayta ishlashga asoslangan birlashgan korxonalar(ba'zida realizatsiya qilish) – vertikal integratsiya;

2.Ichki tarmoqlararo ixtisoslashgan va kooperativlashgan – gorizontal integratsiya (xo'jaliklararo bo'rdoqichilik bazalari);

3.Qishloq xo'jaligi korxonalariga ishlab chiqarish xizmatlarini ko'rsatuvchi (xo'jaliklararo qurilish, ishlab chiqarish uchun qurilish materillari ishlab chiqarish birlashmalari va x.k).

SSSR xalq xo'jaligini rivojlantirishning 1971-1975 yillarga mo'ljallangan besh yillik plan yuzasidan KPSS XXIV syezdi direktivalarida kolxoz va sovxozlarda yordamchi sanoat korxonalarini, dastavval qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash korxonalari, mahalliy xomashyolardan qurilish materiallari va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish zarurligi ta'kidlab o'tilgan.

Buxoro agrar-sanoat ishlab chiqarish birlashmasi 1976 yil SSSR Ministrlar Sovetini va Meva-sabzavotchilik ministrliklari qarorlari bilan tashkil topgan. Tuzilgan vaqtda Buxoro agrar-sanoat ishlab chiqarish birlashmasi Meva-sabsavotchilik ministrligiga qaragan, ASK tuzilishi 1976 yilda:

1. Rahbariyat
2. Kadrlar bo'limi;
3. Hisobxona;
4. Reja bo'limi
5. Qishloq xo'jaligi
6. Dehqonchilik
7. Chorvachilik

Ushbu bo'limlar tuzilishi jihatidan davlat reja qo'mitasi talab va yo'riqnomasiga mos bo'lsada iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan. Sohadagi qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazorat yetarli darajada o'rnatilmagan.

Xususan, ixtisoslashtirilgan «Galaosiyo» sovxozida uzum hosildorligi bir necha yillar mobaynida gektar boshiga 128 sentnerni tashkil qildi, har sentner mahsulot uchun 1,6 kishi-kuni sarflangan. Butun Buxoro oblastida esa hosildorlik 7,4 barobar kam xarajatlar esa 14 barobar ortiq bo'lgan.[1]

[1] Й.Қурбонов. Энг муҳим вазифа.//Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги, 1974 йил, 8-сон. -Б.3.

1984 yil 26 – 27 – mart kunlari Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunittifoq iqtisodiy qurultoyida aynan O‘zbekiston Respublikasining Buxoro viloyati iqtisodiyoti masalalari: tajriba va qayta qurish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek Buxoro viloyatida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va xomashyo bazasini kengaytirish masalasi muhokama etiladi.

Yordamchi korxonalarning hozirgi rivojlanish darajasi.

Respublika kolozlari va sovxozlaridagi yordamchi korxonalarning shoxobchalari o’tgan va hozirgi besh yilliklar mobaynida sezilarli darajada o’sgan.

Korxonalar nomi	Kolxozlar	Sovxozlar	Jami
Dehqochlik mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar	563	151	714
Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar	159	22	181
Duradgorlik va yog’ochsozlik korxonalari	329	189	518
Qurilish korxonalari ishlab chiqaradigan korxonalar	45	105	150
Elektrostantsiyalar	-	360	360
Traktor qishloq xo’jalik mashinalari va boshqa jihozlar remonti ustaxonalari	-	438	438
Boshqa korxonalar	64	-	64
Jami	1 160	1 265	2 425

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan band bo’lgan korxonalar qariyb 40 %, qurilish materilallari ishlab chiqarish korxonalari 6,2 %, duradgorlik va yog’ochsozlik korxonalari 21,4 % tashkil etadi. Shuni qayd etish kerakki, sabzavot, meva, uzum, sut va boshqa tez buziladigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar va sexlar bir

muncha o'sgan bo'lishiga qaramay, bunday korxonalar respublikada hali yetarli emas.

Ko'pgina yordamchi korxonalar moslashtirilgan binolarga joylashtirilgan va asbob-uskunlar bilan ta'minlanmagan.

Buxoro ASB 1976 yilda "Galaosiyo" sovxoz-zavodi negizida bosh korxona sifatida tashkil etilgan, unga qo'shimcha yana 14 shtat birligi ajratilgan. Alohida, maxsus oblast apparati sifatida 1979 yil dekabriga qadar 42 shtat birligida faoliyat yuritgan.

Buxoro agrar-ishlab chiqarish birlashmasi 1979 yilda 6001 ming rubl sof foyda bilan chiqqan, shu jumladan qishloq xo'jaligi yo'nalishida 1688 ming rubl, sanoat yo'nalishida 4313 ming rubl, 1980 yilda 5525 ming rubl sof foyda olish kutilmoqda, qishloq xo'jaligida 1705 ming rubl, sanoat yo'nalishida 3820 ming rubl miqdorida daromad qilgan.

1979 yilda birlashma tomonidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararning prognozlari ham hisobga olingan. 1979 yilga nisbatan 1980 yilda ushbu daromadlar sezilarli darajada pasaygan, sababi 1978 yildan 1979 yilga qadar hosildorlik meva yetishtirish misolida oladigan bo'lsak uzum hosildorligi – 49 ming tonna atrofida, 1979 yilda esa jami hammasi bo'lib 44 ming tonna yetishtirib olindi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sovxozlardan birlashmagan o'zaro shartnoma asosida o'tkaziladi;

- Uzum vinzavod va sovxoz-zavodlarga
- Ho'l mevalar birlashmaning o'zi, foydalanish rejasiga asosan, bir qator birlashmalar va bevosita xaridorlar bilan shartnoma asosida
- Sabzavot, poliz, jun, quruq mevalar tayyorlov kontorasi va olbpotrebsoyuz orqali.
- Sut va sut zavodlari O'zSSR sut-go'sht Ministrligidan qabul qilinadi
- Go'sht "Uzzagetjivprom" orqali
- G'alla O'zbekiston tayyorlov ministrligi xleb kombinati orqali o'tadi.

Yuqorida qayd etilgan sovxozlar asosida birlashma topshirilmagan qishloq xo'jaligi mahsulotari uchun jarima to'laydi o'zi topshirmagan mahsulot

soniga, shu bilan birga oshirib bajarilgani uchun ustama tayinlangan. Birlashmaning sovxozlar bilan hamkorlik tizimi Minsel O'zSSR va kolxozlar davlatga uzum topshirish sharnomasi bilan amalga oshiriladi. Topshshirilmagan uzum uchun Uzminsel O'zSSR va kolxozlarla topshirilmagan miqdordagi summasining 5% jarima to'lagan, shu bilan birga, sovxoz-zavodlar, vinzavod yillik 7 ming rubl atrofida foydasidan jarima sanktsiyalariga olinadi. AKS O'zminselxoz sovxozlari va kolxozlar bilan hamkorlikda uzum, meva, sabzavot, poliz yetishtirishning ilg'or usullarini joriy etish maqsadida seminarlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy zahiraga shunchalik boy bo'lishiga qaramay, olib borilayotgan islohotlar samarasizdek tuyulardi. "Iqtisodiyotni ko'tarish uchun qabul qilingan yillik rejaning bajarilmagani oqibatida yuz bergan oqibatni viloyatda faoliyat ko'rsatib kelayotgan DSK, "Uzradstroy", SIMK – 21 tresti, Trest № 20 boshqarmasi, ""Amu Buxorokanalstroy", "MK–7, "Uzelektrostroy" kabi tashkilotlar faoliyatida ham ko'rish mumkin edi. Shuningdek, xomashyoni tejash, mashinasozlik va mexanizmlarning qisqartirilishi oylik maoshni sezilarli darajada pasayishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston KP Obkom partiyasi va oblispolkom oblast qishloq xo'jaligi mehnatkashlari KPSS XXV syezdi, iyul (1978 yy) va noyabrda (1979 yy) bo'lib o'tgan KPSS Plenumi qarorlarini amalga oshirilganini qayd etadi. 1979 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yalpi hajmi 193,8 mnl o'rniga 602,2 mln rublga bajarildi. O'tgan to'qqizinchi besh yillik bilan solishtirganimizda o'rtacha yillik o'sish darajasi yuqori bo'lgan. Paxtakorlar o'ta noqulay tabiiy sharoitlarda hosildorlikda rekord darajaga erishdi va davlatga 608,7 ming tonna paxta-xomashyosi topshirdilar, shundan 31,6 ming tonnasi qimmatli ingichka tolali paxta hisoblanadi.

1985 yil yakunida viloyat aholisi 1,017 million kishini tashkil etib, viloyatda 89 xil millat va elat vakillari istiqomat qilardi. Viloyatda 10 ta tuman, 10 ta viloyat tarkibidagi shahar, 3 ta shahar posyolkalar, hamda 84 ta qishloq sovetlari mavjud edi. Buxoro viloyatida 80 ta ishlab chiqarish korxonasi ish olib borardi. Eng qattiq zarbani viloyatning yengil sanoat tarmog'i – paxta tozalash va oziq – ovqat sohasi boshidan kechirdi. 1985 yilda aholi uchun ishlab chiqarilgan mahsulot 422 million

so‘mni tashkil qildi. Ayniqsa yirik ishlab chiqarish korxonasi sanalgan Buxoro tekstil korxonasida ishlab chiqarilgan mahsulot 172 million so‘mdan oshib ketdi. Jami qishloq xo‘jalik maxsulotlari 413 million tonnani tashkil etdi. 1984 yilning noyabr oyi hisobiga ko‘ra viloyatda 384 ming tonna paxta yetishtirildi.”

Shu boisdan SSSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1981-1985 yillarga hamda 1990 yilgacha bo’lgan davrga mo’ljallangan, asosiy yo’nalishlarida qishloqqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olingan mahsulotlarni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag’larni ko’proq sarflash ko’zda tutilgan. Qishloq xo’jaligi mashinalarini, o’g’itlarni chiqarishni ko’paytirish va sifatini yashilash, transport, mahsulot saqlash butun sohani takomillashtirish tadbirlari belgilab qo’yilgan, uni qayta ishlashning ishlab chiqarish ba’zasi mustahkamlanmoqda, oziq-ovqat, go’sht va sut sanoati zamonaviy mashina-uskunalar bilan ta’minlangan. Qishloq xo’jaligi samaradorligi ko’pgina jihatlardan qishloq xo’jaliginigina emas, balki agrosanoat kompleksining boshqa barcha bo’g’inlarni ham proportsional, balanslashtirilgan tarzda rivolantirishning 1981-1985 yillarga hamda 1990 yilgacha bo’lgan davrga mo’ljallangan Asosiy yo’nalishlaridan qishloqqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olinadigan mahsulotni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag’lar ko’proq sarflanishi ko’zda tutilgan edi.

Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko’pgina komplekslarning boshqa barcha bo’g’inlarini ham proportsional, balanslashtirilgan tarzda rivojlantirishgan.

Butun respublikada milliy daromadning o‘rtacha yillik o‘sishi pasayib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad 1965 yilgidan 1986 yilga kelib 7 barobarga kamaydi. Buxoro viloyatida yuz bergan katta xato shundan iborat ediki, viloyat nafaqat respublika, balki butun SSSR davlati miqyosida qishloq xo‘jalik sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha yetakchi viloyat sanalsada, viloyatda faqatgina Markazning buyurtmasi hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirilardi. “1985 – 1986 yillarda Buxoro, G‘ijduvon, Shofirkon tumanlarida qoramol yetishtirish keskin

kamayishini kuzatish mumkin. Qorako‘l, Peshku, Vobkent tumanlarida sog‘in sigirlar hisobidangina qoramolchilik sohasidagi ayrim nuqsonlar keskin ko‘zga tashlanmasdi. 1985 yilning yanvaridan to avgust oyiga qadar viloyatning xo‘jaliklararo tarmoqlarida jami 9275 tonna tirik vazndagi qoramollar yetishtirildi. Bu esa qabul qilingan yillik rejaning 62,2% ini tashkil etardi. Shuningdek sut yetishtirish 36235 tonna, ya’ni 68, 2 % foizni, 38735 ming dona tuxum, ya’ni rejaning 75,6% foizini tashkil etdi. Vobkent tumanida go‘sht yetishtirishni 30 % ga, Sverdlov tumanida 20%, Romitan tumanida 17,5%, shuningdek, Buxoro shahrida 24 % ga keskin kamayib ketganini kuzatish mumkin.

Xulosa

Sovet davlati hukmronligi yillarida yuzaga kelgan markazlashgan xalq xo’jaligi majmuasini yaratish jarayoni, uning nazariyasi va tajribasini o’rganish, tahlil etish, mazkur voqelikni xolisona baholash, katta ahamiyatga molik masala hisoblanadi. XX asrning o’rtalaridan boshlab markazlashgan xalq xo’jaligi majmuasining shakllantirilishi sobiq ittifoqdosh respublikalarni bir-biriga chambarchas bog’lab, iqtisodiy jihatdan bevosita markazga bo’ysundirilishiga sabab bo’ldi. 1925 yilda mamlakatda rejalashtirishga zo’r berilishi - yangi iqtisodiy siyosatning to’xtashi va boshqaruvning ma`muriy-buyruqbozlik usulini mustahkam o’rnashib borishi asosida olib borildi. Ta`kidlash joizki, tadqiq etilayotgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o’zbek xalqining ehtiyojlari va manfaati hisobga olinmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. С.Муқсимов. Қоракўл махсулотларини кўпайтириш ва таннархини арзонлаштириш. –Тошкент: Ўзбекистон, 1969. –Б.265

2. КПСС XXVI съезининг материлларидан, 62-63 бетлар.

3. Ф.Қурбонов, А.Ниёзов. Коннимех (Бухоро область, “Коннимех”давлат наслсилик совхози тарихт)//Ўзбекистон колхоз ва совхозлари таризи (Очерклар) 3-китоб. Тошкент.: Ўзбекистон. 1972. –Б. 115.

4. КПССнинг иқтисодий сиёсати:Ўқув қўлланмаси(Авт.: Абалкин Л.И, Белик Ю.А., Владимиров Б.Г ва бошқ.) –Т.: Ўзбекистон, 1982. –Б.259.

5. Народное хозяйство СССР г. Стат. Сб., Ташкент, Узбекистан, 1973. –С.

6.

7. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich, "1950-80 yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ixtisoslashtirilishi tarixidan". Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 12/2024. 42-47 betlar.

8. Nasilloyev Sunnat Shavkat o'g'li. "O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash muammo va yechimlari (1960-1970 yillar misolida)", Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 12/2024. 47-51 betlar.